

N.A.SAMIGOV, M.Q.XASANOVA,
M.SH.MIRZAYEVA, J.S.ZOKIROV

IKKILAMCHI RESURSLAR ASOSIDA QURILISH MATERIALLARI VA BUYUMLARI



TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

**N.A.SAMIGOV, M.Q.XASANOVA, M.SH.MIRZAYEVA,
J.S.ZOKIROV**

**IKKILAMCHI RESURSLAR ASOSIDA
QURILISH MATERIALLARI
VA BUYUMLARI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida
tavsiya etilgan*

**Texnika fanlari doktori, professor N.A. Samigov
tahriri ostida**

TOSHKENT – 2016

UO‘K: 691 (075)

Ikkilamchi resurslar asosida qurilish materiallari va buyumlari. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2016, 200 bet.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada tog‘-konchilik, issiqlik energetikasi, qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati, yog‘ochni qayta ishlash va selluloza – qog‘oz sanoati, oziq-ovqat va shahar xo‘jaligi chiqindilaridan qurilish materiallari va buyumlari tayyorlashning ijtimoiy, ekologik va tashkiliy yechimlari berilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma arxitektura-qurilish bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan. Undan magistrantlar, injener-texnik xodimlar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar: T.A.Otaqo‘ziyev – t.f.d., prof.;
M.T. Turopov – t.f.n., dots.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2014-yil, 23-avgustdagi 335-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma sifatida nashr etishga ruxsat berildi (gr.№335-068).

© Toshkent arxitektura qurilish instituti, 2016.

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida Qurilish industriyasi alohida o‘rin tutadi. Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalari ishlab chiqarishni radikal qayta qurish, intensivlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari mavjud. Bu sohada tabiiy resurslarni tejash, energiya manbalaridan unumli foydalanish, ikkilamchi resurslar, sanoat va qishloq xo‘jaligi chiqindilarini ishlatish ustivor vazifalar hisoblanadi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida ikkilamchi resurslarni ishlatish katta miqdorda energiya va xom ashyo zaxiralarini tejashga olib keladi. Ikkilamchi resurslarni ishlatish ekologik, iqtisodiy va texnik jihatlariga asoslanishi zarur. Shu sababli ularni kimyoviy tarkibi, hosil bo‘lishi ko‘lami, ekologik tozaligi bo‘yicha tasniflash masalasi dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi kunda sanoat va qishloq xo‘jaligining deyarli barcha tarmoqlarida ikkilamchi resurslar turli miqdorda hosil bo‘ladi. Ular atrof-muhit ekologiyasi va yer resurslariga salbiy ta‘sir o‘tkazishi yechimini kutib turgan global muammodir. Qurilish materiallari ishlab chiqarishga yaroqli sanaladigan millionlab tonna ikkilamchi resurslar O‘z kimyosanoat, issiqlik energetikasi, tog‘-konchilik, metallurgiya, qurilish materiallari sanoatida, Yog‘ochni qayta ishlash va qishloq xo‘jaligi sohalarida hosil bo‘ladi. Ushbu sohalar ikkilamchi resurslarni o‘rganish, tizimga solish, ishlatilishini ilmiy-texnik jihatdan asoslash va tadqiq etish dolzarb muammo sanaladi.

Sanoat va qishloq xo‘jaligi chiqindilari asosida qurilish materiallari texnologiyasini yaratishga ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar bag‘ishlangan. Ushbu sohada professorlar T.A.Otaqo‘ziyev, E.U.Qosimov, S.S.Nigmatov, M.K.Toxirov, N.A.Samigov, Z.P.Po‘latov, M.I.Iskandarova, A.A.To‘laganov, Z.Qodirova va boshqalar ilmiy-amaliy ishlarni olib bordilar va innovatsion texnologiyalarni yaratdilar.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada O‘zR sanoat va qishloq xo‘jalik chiqindilari asosida olingan qurilish materiallari va buyumlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan va bo‘lajak quruvchi mutaxassislarning diqqat e‘tiborini ushbu dolzarb muammoga qaratish maqsad qilib qo‘yilgan.

Ishlab chiqarish chiqindilari va ikkilamchi resurslarni qurilish materiallari va buyumlari tayyorlashda foydalanish quyidagi dolzarb vazifalarni yechishga yordam beradi:

- qurilish materiallari ishlab chiqarishning asosiy xom ashyo bazasini, ya'ni resurslarini tejaydi;
- energiya manbalarini tejaydi;
- atrof –muhit tozaligi, ekologik sistema masalalarini hal qiladi;
- yer resurslarini rekultivatsiya qilish hisobidan qayta tiklaydi;
- qurilish materiallari tannarxini pasaytiradi;
- ba'zi komponentlarni import o'rnini bosishga imkon beradi.

O'quv qo'llanmaning 1, 8, 9 boblari N.A.Samig'ov, 2, 4 boblari M.Q.Xasanova, N.A.Samig'ov, 3 va 5 boblari N.A.Samig'ov va M.Sh.Mirzayeva, 6 bob J.S.Zokirov va N.A.Samig'ov tomonidan yozilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma Φ -4-50 "Kompozision qurilish materiallari yaratishning polistruktura nazariyasi asoslarini rivojlantirish" fundamental Davlat grant loyhasi ilmiy-amaliy natijalari asosida tayyorlangan

I BOB. IKKILAMCHI RESURSLAR ASOSIDA QURILISH MATERIALLARI VA BUYUMLARI TAYYORLASHNING IJTIMOIY, EKOLOGIK VA TASHKILY JIHATLARI

Tayanch iboralari: *xom ashyo zaxiralari, chiqindilar, ratsional foydalanish, ekologik jihatlar, tashkiliy jihatlar, ikkilamchi resurslar tasnifi, terminologiya.*

1.1. Qurilish materiallarini ishlab chiqarishda hom ashyo zaxiralarini tejash asosiy vazifadir

Mamlakatimizda chiqindisiz innovatsion texnologiyalarni joriy etish jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ammo texnologiyalarni to'la mukammallashmaganligi va boshqa tashkiliy tadbirlarning ko'rilganligi sababli millionlab tonna chiqindilar hosil bo'lmoqda. Ular hosildor yerlarni egallab turishi bilan birga atrof-muhit ekologiyasiga zarar yetkazmoqda.

Sanoat va qishloq xo'jaligi chiqindilarini utilizatsiyalash, ulardan qurilish materiallari va buyumlari tayyorlash ko'plab Vazirliklarning xamkorligi natijasi bo'lishi kerak. Hozirgi kunda qurilish industriyasi korxonalarini yig'ilib qolgan chiqindilarning bir-necha foizini qayta ishlamoqda yoki komponent sifatida material tarkibiga kiritilmoqda.

Chiqindilar hosil bo'ladigan sanoatni boshqaradigan Vazirliklar avvalo ularni standart talablariga binoan tarkiblarini stabillashtirish, zararli moddalardan tozalash, nodir komponentlarni chiqarib olish va sh.k. tadbirlarni ko'rish kerak.

O'zbekiston qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun foydalanadigan xom ashyo zaxiralari boy. Ammo ushbu resurslardan unumli foydalanish, ratsional ishlatish sohalarini belgilash kelajak avlod turmush tarzini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Prezidentining qator qarorlari aynan ushbu muammoga qaratilgan:

-2007 yil 1 iyundaga PQ-646-sonli "2007-2011 yillarda qurilish materiallari sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash dasturi to'g'risida" gi qarori;

- 2009 yil 26 yanvardagi PQ-1046-sonli qarori “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat Dasturi;

- 2009 yil 19 iyundagi PQ-1134-sonli “Devorbop materallar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni rag‘batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori;”

- 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442 sonli “2011-2015 yillarda respublika sanoatini rivojlantirishdagi ustuvorlik to‘g‘risida” gi qarori;

- 2010 yil 29 dekabrda PQ-1455-sonli “Respublikaning 2011 yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturi to‘g‘risida” gi qarori.

Butun dunyoda energiya tashuvchilarning taqchilligi ularni tejab ishlatishni taqozo qiladi. Ushbu sohada ham Prezidentning qator qarorlari va Vazirlar mahkamasining qarorlari mavjud.

- “Energiyani ratsional ishlatish to‘g‘risida” gi O‘zR qonuni, 1997 y.;

- “O‘zR energetikasida iqtisodiy reformalarni chuqurlashtirish” to‘g‘risidagi Prezident Qarori, 2001 y.;

- “Yonilg‘i-energetik resurslarni iqtisodi bo‘yicha komissiyani tasdiqlash to‘g‘risida” gi O‘zR Vazirlar Mahkamasining № 518-sonli Qarori, 2003 y.;

- “Yonilg‘i-energetik resurslar iste‘molchilarini energetik tekshirish va ekspertizadan o‘tkazish” to‘g‘risidagi O‘zR Vazirlar Mahkamasining № 164-sonli Qarori, 2006 y.;

- “Energetik tekshiruv va ekspertiza o‘tkazish bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash nizomini tasdiqlash” to‘g‘risidagi O‘zR Vazirlar Mahkamasining № 504-sonli Qarori, 2003 y.;

- “2009-2015 yillar mobaynida Respublikada issiqlik ta‘minoti tizimini reformalash, modernizatsiya dasturi va issiqlik ta‘minoti tizimini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish tadbirlari” to‘g‘risidagi O‘zR Vazirlar Maxkamasining № 13-sonli Qarori, 2009 y.;

- “Elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish qoidalarini tasdiqlash” to‘g‘risidagi O‘zR Vazirlar Maxkamasining № 245-sonli Qarori, 2009 y.;

- “Elektr energiyasini hisobga olish va iste‘molini nazorat qilish tizimini mukammallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tadbirlar” to‘g‘risidagi O‘zR Vazirlar Maxkamasining № 150-sonli Qarori, 2009 y.

- O‘zbekistonda birlamchi energiyaning iste‘moli strukturasi: Energosistema va sanoat – 35,0%; Kommunal sektor va aholi iste‘moli – 49,2%; Transport – 9,0%; Qishloq xo‘jaligi – 6,0%; Qurilish – 0,8%.

Energiya tejamkorlik siyosatining jihatlari: iqtisodiy, tashkiliy, me‘yoriy-huquqiy, texnik, informatsion.

Is'temol bozorini zamonaviy qurilish materiallari bilan boyitish va unga bo'lgan talab va ehtiyojni qondirish maqsadida, Respublika Hukumati tomonidan tarmoqni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zR prezidentining 2005 yil 24 martdagi PF-3586-sonli "Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish va qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish to'g'risida" gi farmonining muxim ahamiyati kasb etganligini alohida ta'kidlash kerak. Ushbu farmonda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini oshirish, ularning turlarini ko'paytirish, resurs va energiya tejamkor innovatsion texnologiyalarni joriy etish, korxonalarni respublika hududida ratsional joylashtirish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining ko'lami nihoyatda keng. Qishloq va shaharlarimizda barpo etilayotgan zamonaviy turar-joylar, sanoat, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish, sport majmualari aholi turmushining yanada farovon etishida muhim rol o'ynamoqda. Ushbu ishlarning samaradorligi ob'ektlarning sifatli qurilish materiallari bilan doimiy ravishda ta'minlanib borishiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi qurilish materiallari sanoati uchun boy mineral-xom ashyo resurslariga ega.

O'zbekiston hududida 500 dan ortiq g'isht, sement, keramzit xom-ashyosi, arralanadigan tosh, gips, ohaktosh, beton va boshqalar uchun to'ldiruvchilar konlari aniqlangan bo'lib, bugungi kunda ular bazasida bog'lovchi, issiqlik izolyatsiyasi va tombop materiallar ishlab chiqarish korhonalari faoliyat yuritmoqda, shu bilan birga shisha, asboement va boshqa buyumlar ishlab chiqaruvchi keramik kombinatlar va zavodlar faoliyat yuritmoqda.

Mamlakatimiz va chet ellarda o'zbek dekorativ pardozbop toshlari – marmar, travertin, granit, gabbro juda yaxshi ma'lumdir.

Markaziy Osiyoda O'zbekiston qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun hom ashyo zahiralari bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi foydali qazilmalar zahiralari, Davlat balansi tomonidan ko'plab konlar zahiralari hisobga olingan, shu jumladan: g'isht va agloporit ishlab chiqarish uchun 215 ta konlarda, sement ishlab chiqarish bo'yicha 37 ta konlar, saralangan toshlar olish uchun 30 ta konlara, dala shpati homashyosi va vollostanit bo'yicha 5 ta konlar, oyna hom ashyosi bo'yicha 7 ta konlar, ohak kuydirish uchun ohaktosh bo'yicha 24 ta konlarda, tabiiy pardozbop toshlar bo'yicha 93 ta konlar, mineral tolalar ishlab chiqarish uchun bazalt jinslari bo'yicha 3 ta konlar, qum shag'al aralashmalari bo'yicha 91 ta konlar, oqava suvlar

quvurlari hom ashyosi bo'yicha 3 ta konlar, silikat buyumlar ishlab chiqarish va qurilish ishlari uchun qumlar bo'yicha 28 ta konlar, keramzit hom ashyosi uchun 15 ta konlar, gips bo'yicha 19 ta konlar va boshqalar.

Mamlakatimiz Prezidentining «2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» nomli ma'ruzasida, respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha belgilangan vazifalar asosida ishlarni yo'lga qo'yishga muhim e'tibor qaratilmoqda. «O'zqurilishmateriallari» aksiyadorlik kompaniyasida ham ayni shu boradagi vazifalar belgilab olingan.

2012 yil 19 yanvardagi respublika Hukumati yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko'rsatib berilgan 2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida, 2012 yilning 9 oyi davomida iqtisodiyotning o'sish su'ratlari va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash ta'minlandi.

Raqamlarga e'tibor qilsak, kompaniya tizimiga kiruvchi korxonalar tomonidan 2013 yilning 9 oyiga nisbatan mahsulotning umumiy ishlab chiqarish hajmi 6,2% ga o'sishi ta'minlandi va 1120,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari hamda xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarildi.

Shifer ishlab chiqarish bo'yicha 136,0% ga, qurilish gipsi ishlab chiqarish bo'yicha 123,7% ga, keramik plitka ishlab chiqarish bo'yicha 106,4% ga, mineral paxta ishlab chiqarish bo'yicha 104,6% ga, quruq qurilish qorishmalari ishlab chiqarish bo'yicha 208,0% ga va shisha buyumlar ishlab chiqarish bo'yicha 110,0% ga o'sishga erishildi.

Iste'mol bozorini zamonaviy qurilish materiallari bilan boyitish va unga bo'lgan talab va ehtiyojni qondirish maqsadida, Respublika Hukumati tomonidan qurilish materiallari tarmog'ini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tarmoqni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2005 yil 24 martdagi 3586-sonli) «Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish to'g'risida» gi Farmoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Unda qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, ularning turlarini ko'paytirish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va tadbqiq etish, yangi, raqobatbardosh qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi quvvatlarni Respublika hududlarida oqilona joylashtirish ko'zda tutilgan bo'lib, 2005-2013 yillar davomida jami 140 ta loyiha amalga oshirildi.

Gipskarton, quruq qurilish qorishmalari, sovuq va issiq suv ta'minoti uchun polipropilen quvurlar, ko'pikbeton, akrilli sanitariya-texnika buyumlari, vermikulit, qoplovchi toshlar, devorbop va tomyopqich materiallar, loq-bo'yoq mahsulotlari va boshqa yangi, zamon talablariga javob beruvchi materiallarni ishlab chiqaruvchi korxonalar ishga tushirildi.

Joylarda, qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi yangi korxonalarni barpo etish orqali qishloq aholisining turmush tarzini yaxshilashga va ularni sifatli qurilish materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublika Hukumati tomonidan qabul qilingan «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat Dasturi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi PQ-1046-sonli Qarori) doirasida bog'lovchi, devorbop, tomyopqich va bezak materiallarni ishlab chiqaruvchi 38 ta loyiha amalga oshirildi.

Respublikamizda qurilish ishlarini ortib borayotgani, aholi daromadlarining ko'payib borishi, turmush tarzini yaxshilashga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida qurilish materiallariga, birinchi navbatda, sifatli pishgan g'ishtga bo'lgan talab va ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

Ushbu ehtiyojni qondirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Devorbop materiallar ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori o'z vaqtida qabul qilindi.

Qarorda, yangi korxonalarni barpo etish va amaldagilarini modernizatsiya qilish, tayyor mahsulot narhining va sarf-harajatlarning kamayishini ta'minlaydigan zamonaviy, energiyani tejoyvchi texnologiyalarni tadbiq etish hisobiga sifatli devorbop materiallarni ishlab chiqarish hajmini oshirish belgilangan edi.

Mazkur qarorga asosan, pishgan g'isht ishlab chiqaruvchi yangi quvvatlarni ishga tushirish Dasturini ijro etish maqsadida, respublika hududlarida 2009-2013 yillar davomida umumiy quvvati 844,2 mln. dona shartli g'isht bo'lgan ja'mi 175 ta yangi investitsiya loyihalari amalga oshirilgan bo'lib, (belgilangan prognoz 455,3 mln. dona) topshiriq 185,4% ga bajarildi.

Bugungi kunda respublikada umumiy quvvati 3,5 mlrd. donaga ega bo'lgan ja'mi 888 ta g'isht ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud bo'lib, ularning 768 tasi tabiiy gazda, 120 tasi esa ko'mirda ishlaydi.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/3948> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3948> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3948>